

Abdulkarimova Charos Yaxshiboy qizi,

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti

Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: O'ZJOKU dotsenti.T.R. Dusanova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning ma'rifiy qarashlari va milliy uyg'onish yo'lidagi xizmatlari yoritiladi. Ijodkorning "Adabiyot qoidolari" hamda "Tilimiz" asarlari asosida adabiyotning ijtimoiy-estetik vazifasi, tilning milliy o'zlikni shakllantirishdagi roli va ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Fitratning qarashlari milliy uyg'onish mafkurasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Tayanch so'zlar: Abdurauf Fitrat, ma'rifat, "Adabiyot qoidolari", til, milliy uy -g'onish, ta'lim.

Abstract: This article analyzes the educational views of Abdurauf Fitrat within the context of the Jadid movement. Based on his works "Rules of Literature" and "Our Language", the socio-aesthetic function of literature, the role of language in shaping national identity, and the importance of education in social development are examined from a scholarly perspective. Fitrat's views are interpreted in connection with the ideology of national awakening.

Keywords: Abdurauf Fitrat, enlightenment, Rules of Literature, language, national awakening, education.

Аннотация: В данной статье просветительские взгляды Абдурауфа Фитрата анализируются в контексте джадидского движения. На основе произведений «Правила литературы» и «Наш язык» научно освещаются социально-эстетическая функция литературы, роль языка и формирования национальной идентичности и значение образования и развития общества. Взгляды Фитрата интерпретируются в тесной связи с идеологией национального возрождения.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, просвещение, «Правила литературы», язык, национальное возрождение, образование.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy va adabiy - madaniy hayotida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Mustamlakachilik siyosati, savodsizlik va jaholat millat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan bir davrda jadid ma'rifatchilari xalqni ilm-ma'rifat orqali uyg'otishga harakat qildi. Ana shunday fidoyi ziyolilardan biri Abdurauf Fitratdir. Fitrat qomusiy ilmlar egasidir. U - o'zbek dramachiligiga munosib hissa qo'shgan ijodkor. Jadid adabiyotining yetuk namoyondalaridan bo'lgan Fitrat asarlarida asosiy g'o'ya ma'rifat, xalqni baxtli ko'rish edi.

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda

Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.

O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda

Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.[Fitrat A, 1993:11]

Uning ma'rifiy qarashlari tasodifiy emas, balki chuqur nazariy asosga ega bo'lib, u adabiyot, til va ta'limni milliy taraqqiyotning strategik omillari sifatida talqin qiladi. Fitratning ma'rifiy qarashlari adabiyotning tarbiyaviy va ilmiy ahamiyatiga qaratilgan. U "Adabiyot qoidolari" risolasida adabiyotga quyidagicha ta'rif beradi: "Adabiyot – fikr va tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir. Adabiyotning ikkinchi bir tarifi, bir turli tartibga solinib yozilgan butun asarlardir. Bu tarifga qaraganda, bir tilda yozilgan butun asarlar shu tilning adabiyoti bo'ladi. Shunday qilib adabiyot fikr va tuyg'ularni chiroyli va ta'sirli ifoda etish san'atidir." [A.Fitrat.1:13]. Bu ta'rif faqat estetik mazmun bilan cheklanmaydi. Fitrat adabiyotni jamiyatning ruhiy hayotini shakllantiruvchi kuch sifatida ko'radi. Uning nazarida adabiyot inson tafakkurini o'stiradi, axloqiy mezonlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy ongni uyg'otadi. Demak, adabiyot Fitrat uchun passiv kuzatuvchi emas, balki faol tarbiyaviy va ma'rifiy vositadir.

Fitratning ma'rifiy qarashlarida til muammosi markaziy o'rin tutadi. U o'z davridagi aksar ziyolilar tomonidan turli shakllarda bayon qilingan "Tilimizni arab-fors unsurlaridan tozalashning imkonsizligi" borasida juda keskin da'volarning zamini bo'sh ekanligini ko'rsatib beradi. Masalan, 1919-yildagi "Tilimiz" nomli maqolasida e'tirozchilarning "Turkcha arab, fors tillaridan qutulolmas,

chunki tilimizda ko'p narsalarning oti yo'qdir" qabilidagi iddaolariga shunday javob qiladi: "Javobimiz: bu so'zdan tilagingiz nimadur? Shul choqda tilingizdagi arab, fors so'zlarining turkchasi topilmaydur demoqchi bo'lsangiz, so'zingiz yanglishdir. Turkchani bilmas ekansiz. O'rganing. Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha, forshalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir, desangiz to'g'ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Qoidaning turkchasi yo'qdir. Sarfning turkchasini topolmadik. Ikkisin dahi olurmiz. Lekin, siz kabi qavoidi sarfiya demasdan, sarf qoidalari dermiz. Chunki ilmiy istilohlarning turkchasi yo'qdir. Kim dedi buni? Shamsning turkchasi quyoshdir. Kavokibning turkchasi yulduzdir. Manorning turkchasi olov, o'tdir. Sahobi munavvar – yorug' bulut, handasa – o'lehov xat chiziq, zoviya – burchak, puchmoqdir. Kavokibi sobita – turg'uchi yulduzdir. Kavokibi zu zanb – quyruqli yulduzdir"[H.Boltaboev.2:48].

Fitrat mazkur maqoladagi fikrlarini no'to'g'ri talqin qila boshlagan ayrim "tilshunos"larga ayni sarlavhali boshqa maqola bilan javob bergan, maqsadining mag'z-u mohiyatini ikki karra ikki to'rtday aniq bayon qilgan. Uning ushbu so'zlaridagi bir qadar og'rig'-u o'kinchni ilg'amaslik mumkin emas: "Men turk ulusig'a o'z boshli (mustaqil) bir til va shu tilde yozilgan "ilm" istayman. Turkchani boylig'i, kengligi va to'lg'unligini bilganim uchun bu ishni qulay deb ishonaman. Tilimizning o'z boyligi (mustaqil) bo'lib turushi uchun gaplarga va yozuvlarimiz aro kirib qolg'an yot so'zlarning o'zbekchalarini ilkimizdan kelgancha oxtarib topib ishlaylik. Tilimizdag'i yozilg'an "bilim"ni ko'rmak uchun "ilmiy istilohlar" dedigimiz "bilim so'zlari" ning ilkimizdan kelgancha turkchalarini topib olmoq yo'linda tirishmakni har bir turk yozuvchisi uchun "vojib" deb bilaman. Turkchasi topilmag'an so'zlar va istilohlar qolsun, biroq turkchani buyrug'i ostinda kirib qolsun; boshqacha turli aytqanda, Fransa(Fransiya)da yashag'an bir turk kabi bo'lundig'i turkchani qonunlarig'a bo'ysunib yashasun; turkchda turg'an bir fransuzdek "kapitulatsion" asrori ostida turmasun"[H.Boltaboev.2:48].

Uning bu va boshqa qaydlari bilan tanishganda olim zabardast tilshunos sifatida o'zbek tilining sofligi va rivoji uchun nechog'lik muntazam qayg'urganligiga, mazkur masalaga chinakam ilmiy mantiq va teran hassosiyat bilan yondashganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Fitrat nazarida milliy uyg'onishning eng muhim sharti – ta'lim tizimini isloh qilishdir. U eski usuldagi ta'limni zamon talablariga javob bermaydi deb hisoblaydi, shu sababli yangi usul maktablari orqali yosh avlodga zamonaviy fan, texnika va dunyoqarash asoslarini singdirish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jaholat – taraqqiyotning asosiy dushmani. Ilm esa ozodlikka eltuvchi vositadir. Shu ma'noda uning ma'rifiy qarashlari faqat madaniy emas, balki siyosiy ahamiyat ham kasb etadi, chunki ilmiy jamiyat mustaqil va sog'lom fikrlay oladi.

Abdurauf Fitratning ma'rifiy qarashlari jadidchilik mafkurasining nazariy asosini tashkil qiladi. U adabiyotni- ma'naviy tarbiya vositasi, tilni – milliy o'zlik asosi, ta'limni esa- jamiyat taraqqiyotining bosh omili sifatida talqin qiladi. Uning g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Globallashuv jarayonida milliy tilni asrash, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va ilm-ma'rifatni ustuvor qilish masalalari hanuz dolzarbdir. Shu bois Fitrat merosi nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy tafakkur uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.А.Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. “Тилимиз” мақоласи. www.ziyouz.com
2. А.Фитрат. Адабиёт қоидалари.-Т;Маънавият,2006.-336-б.
- 3.А.Фитрат. Шеърлар. “Маънавият” нашриёти. www.ziyouz.com
- 4.Х.Болтабоев.Фитна санъати-2.-Т: Фан,1993.-154 б.

